

7-SINF MUSIQA FANIDAN I CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT I

1. Surxondaryo–Qashqadaryo musiqa uslubining shakllanishida mehnat ayimlari va mavsumiy marosim qo‘shiqlarining o‘rnini tahlil qiling.
2. Ushbu voqa musiqasida baxshilar san’ati nega alohida mavqega ega ekanini tushuntiring.
3. Surxondaryo–Qashqadaryo dostonchilik an’alarida do‘mbira va qo‘bizning vazifasini izohlang.
4. Mahalliy mehnat qo‘shiqlari bilan ommaviy sayil qo‘shiqlari o‘rtasidagi farqni misollar asosida tushuntiring.
5. "Navro‘z bayrami", "Lola sayli" va "Qarsak o‘yin" kabi ayimlarning voqa hayotidagi o‘rnini izohlang.
6. Surxondaryo–Qashqadaryo uslubida yakka va jamoa ijrochiligi qanday namoyon bo‘lishini yozing.
7. "O‘zbekiston — onajon" qo‘shig‘ining mazmuni va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiling.
8. Buxoro–Samarqand musiqa uslubining ikki tillilik bilan bog‘liq xususiyatini tushuntiring.
9. Shashmaqomning Buxoro–Samarqand uslubidagi o‘rni va nufuzini izohlang.
10. "Baljuvon" xalq kuyi orqali Buxoro–Samarqand uslubining qanday jihatlarini bilish mumkin?
11. "Tinchlik bo‘lsin" qo‘shig‘ida tinchlik g‘oyasi qanday musiqiy vositalar bilan ifodalanganini yozing.
12. Sozanda san’ati tushunchasini ochib bering va ayim-jamoa an’alari bilan bog‘lang.
13. Doirachi dastasi tarkibi va ijro tuzilishini tahlil qiling.
14. "Bo‘yi-bo‘yi" xalq qo‘shig‘ining ijro usuli va raqs bilan aloqasini izohlang.
15. "Ey nozanin" ashulasi asosida xalq ashulalarining o‘ziga xos belgilarini tushuntiring.
16. Farg‘ona–Toshkent musiqa uslubida lapar, yalla va katta ashula janrlarining o‘rnini tahlil qiling.
17. "Tanavor" ashulasi nima uchun Farg‘ona–Toshkent uslubining yorqin namunasi hisoblanadi?
18. Katta ashula va patnisaki ashulani bir-biridan farqlab yozing.
19. Yallachilik san’atida yakkaxon va jo‘rnavor ijrochilik qanday uyg‘unlashishini tushuntiring.
20. Xorazm musiqa uslubining tor, surnay, doira va raqs kuylariga tayanuvchi xususiyatini tahlil qiling.
21. "Lazgi" kuyining xarakteri orqali Xorazm musiqasining jo‘shqinligini izohlang.
22. Xorazm dostonchilik an’alarini Surxondaryo–Qashqadaryo dostonchiligi bilan taqqoslang.
23. "Ovozing sening" aytimi orqali doston parchasi qanday badiiy ta’sir uyg‘otishini tushuntiring.
24. Xorazm ashulachilik san’atida "Suvora" turkumi va "Qalabandi" kuyining o‘rnini yozing.
25. I chorak mavzulari asosida mahalliy uslublarning umumiy va farqli jihatlarini bo‘yicha xulosa yozing.

7-SINF MUSIQA FANIDAN I CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT II

1. Surxondaryo–Qashqadaryo musiqa uslubining tarixiy ildizlari va xalq turmushi bilan bog‘liqligini izohlang.
2. Baxshi atamasining mazmuni va doston ijrochisining vazifasini tushuntiring.
3. Doston aytishda nasriy va nazmiy bo‘limlarning almashinishi nimani ta‘minlashini yozing.
4. Voha musiqa asboblari orasida do‘mbira, sibizg‘i, qo‘biz va changqobuzning o‘rnini tahlil qiling.
5. "Go‘ro‘g‘li" va "Alpomish" singari dostonlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini izohlang.
6. Surxondaryo–Qashqadaryo qo‘shiqlarida mehnat va tabiat manzaralari qanday aks etishini tushuntiring.
7. Buxoro–Samarqand musiqa uslubida xalq qo‘shiqlari, ashulalar va maqomlarning o‘zaro bog‘liqligini yozing.
8. Bu hududda o‘zbek va tojik tilidagi ijro an‘anasi nega muhim ekanini asoslang.
9. "Baljuvon" kuyi va unga o‘xshash namunalari uslub haqida qanday tasavvur beradi?
10. "Tinchlik bo‘lsin" qo‘shig‘ining kuy harakati va matni o‘rtasidagi uyg‘unlikni tahlil qiling.
11. Sozanda san‘atida doira ansambli va aytim-qo‘shiqning birgalikdagi tuzilishini izohlang.
12. Sozanda dastalarining xotin-qizlar davrasidagi o‘rni va badiiy vazifasini tushuntiring.
13. "Bo‘yi-bo‘yi" xalq qo‘shig‘i orqali Buxoro–Samarqand uslubining qaysi jihatlari ko‘rinishini yozing.
14. Farg‘ona–Toshkent musiqa uslubida xalq ashularining mumtoz she‘riyat bilan aloqasini izohlang.
15. "Ey nozanin" ashulasi misolida xalq ashulasining kuy va matn birligini tahlil qiling.
16. Katta ashulaning diapazoni, ijro nafasi va ovozga qo‘yiladigan talablarni tushuntiring.
17. Patnisaki ashula nega katta ashulaning bir ko‘rinishi sifatida qaralishini izohlang.
18. Yallachilik san‘atida doira jo‘rligida ijro etishning ahamiyatini yozing.
19. Xorazm musiqa uslubida raqs, aytim va kuylarning bir-biri bilan bog‘liqligini tahlil qiling.
20. "Shodiyona" qo‘shig‘i orqali bayramona ruhning qanday yaratilishini tushuntiring.
21. Xorazm dostonchilik an‘analarida bolabaxshi va ustoz-baxshi tushunchalarini izohlang.
22. "Ona tilim — o‘zbek tilim" qo‘shig‘ining mazmuni va musiqiy ifodasini tahlil qiling.
23. Xorazm ashulachilik san‘ati nima uchun o‘ziga xos maktab sifatida baholanishini tushuntiring.
24. Mahalliy uslublarni tinglash orqali milliy musiqiy tafakkur qanday boyishini yozing.
25. I chorak bo‘yicha umimlashtiruvchi xulosa yozing.

7-SINF MUSIQA FANIDAN II CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT I

1. Maqom san'ati tushunchasini ochib bering va uning ustoz-shogird an'anasi bilan bog'liqligini tushuntiring.
2. Shashmaqom nega o'zbek-tojik xalqlari kasbiy musiqasining yuksak namunasi hisoblanadi?
3. Shashmaqom tarkibidagi olti maqom nomini yozib, ulardan bittasining ma'nosini izohlang.
4. "Samoiy dugoh" namunasi orqali maqomning cholg'u ruhini qanday his qilish mumkinligini tushuntiring.
5. "Savti Kalon Soqiynomasi" ashulasida maqom va g'azal uyg'unligi qanday namoyon bo'ladi?
6. Shashmaqomning cholg'u bo'limi nima uchun "Mushkilot" deb atalishini izohlang.
7. "Mushkilot" tarkibidagi Tasnif, Tarji, Gardun, Muxammas va Saqil qismlarining vazifasini yozing.
8. Doira usullarining maqom tuzilishidagi ahamiyatini tushuntiring.
9. "Tasnifi Buzruk" va "Nasrulloi" namunalari maqomning qaysi ikki tomonini ko'rsatib beradi?
10. Shashmaqomning ashula bo'limi nima uchun "Nasr" deb yuritilishini tushuntiring.
11. Nasr bo'limidagi birinchi va ikkinchi guruh ayimlari o'rtasidagi farqni yozing.
12. "Saraxbor", "Talqin", "Nasr" va "Ufar" bo'laklarining umumiy tizimdagi o'rnini tahlil qiling.
13. Ota Jalol Nosirov ijodining maqom ijrochiligidagi tarixiy ahamiyatini tushuntiring.
14. Shashmaqomni yozib olish va nashr etish ishlarida V.A.Uspenskiy hamda Yunus Rajabiy xizmatlarini izohlang.
15. Xorazm maqomlari Buxoro maqomlaridan qaysi jihatlari bilan o'xshash va farqli ekanini yozing.
16. Komil Xorazmiy nomi Xorazm maqomlarini yozib olish bilan qanday bog'liq?
17. Xorazm maqomlarining chertim yo'li deganda nimani tushunasiz?
18. "Xorazm Rost maqomi" tarkibi bilan Buxoro "Rost" maqomini taqqoslang.
19. Aytim yo'li nima va u Xorazm maqomlarida qanday o'rin egallaydi?
20. "Navo" maqomining Xorazm va Buxoro an'alaridagi umumiy jihatlari tushuntiring.
21. Komiljon Otaniyozov ijrochilik va bastakorlik faoliyati haqida tahliliy fikr yozing.
22. Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari nima uchun alohida maqom maktabi sifatida qaraladi?
23. "Nasrullo I" va "Dugoh Husayniy I" kabi namunalarda ashula yo'llarining qaysi xususiyati namoyon bo'ladi?
24. Mulla To'ychi Toshmuhamedovning maqom ijrochiligidagi o'rnini tushuntiring.
25. II chorak mavzulari asosida maqom maktablarining umumiy xulosasini yozing.

7-SINF MUSIQA FANIDAN II CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT II

1. Maqom atamasining mazmuni va uning musiqa san'atidagi nufuzini izohlang.
2. Shashmaqomning shakllanishi va rivojlanishida saroy hamda ijro an'analarning o'rnini tushuntiring.
3. Olti maqomdan Buzruk, Rost va Navo maqomlari ma'nosini sharhlab bering.
4. "Samoiy dugoh" va boshqa maqom namunalari tinglash o'quvchiga qanday musiqiy tasavvur beradi?
5. Bobur g'azali asosida kuylanadigan "Savti Kalon Soqiynomasi" ashulasi nega maqomning badiiy ifodasi hisoblanadi?
6. Mushkilot bo'limidagi har bir qismning ritm va usul bilan bog'liqligini yozing.
7. Tasnif va Tarji bo'limlarini tuzilishi jihatidan taqqoslang.
8. Gardun va Muxammas qismlarida avj va rivojlanish qanday yuz berishini tushuntiring.
9. Saqil qismi nima uchun og'ir vazmli bo'lak deb qaralishini izohlang.
10. Nasr bo'limida aytim yo'llarining guruhlarga bo'linishi nimani ko'rsatadi?
11. Tarona, Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar bo'laklari ashula bo'limida qanday vazifani bajaradi?
12. Ota Jalol Nosirovni maqom maktabining yirik vakili sifatida tavsiflang.
13. Levi Boboxonov, Domla Halim Ibodov va Usta Shodi Azizov kabi ijrochilar haqida bilganlaringizni yozing.
14. Xorazm maqomlari tarkibida "Mansur", "Ufor" va boshqa nomlarning ishlatilishini tushuntiring.
15. Xorazm maqomlarining chertim yo'li bilan aytim yo'li o'rtasidagi asosiy farqlarni yozing.
16. Komil Xorazmiyning nota yozuvi va maqomlarni saqlashdagi xizmatlarini tahlil qiling.
17. "Xorazm Navo maqomi" bilan Buxoro "Navo" maqomi o'rtasidagi o'xshashliklarni yozing.
18. Komiljon Otaniyozovning ijrochilik maktabi va uning davomchilari haqida fikr bildiring.
19. Farg'ona–Toshkent maqom yo'llarida cholg'u va ashula bo'limlari qanday uyg'unlashishini tushuntiring.
20. "Nasrullo I" namunasini maqom yo'lining ifodaviyligi nuqtai nazaridan tavsiflang.
21. Mulla To'ychi Toshmuhamedov nega Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari bilan chambarchas bog'lanadi?
22. Farg'ona–Toshkent maqom yo'llarida turkum qismlari va ularning nomlanishi qanday tuzilishini yozing.
23. Maqom ijrochiligida hofiz, sozanda va doirachining o'zaro bog'liqligini tahlil qiling.
24. II chorakda o'rganilgan maqom maktablari yoshlar estetik didiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
25. II chorak bo'yicha umumlashtiruvchi xulosa yozing.

7-SINF MUSIQA FANIDAN III CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT I

1. Jahon musiqa madaniyati tushunchasini izohlang va uning asosiy rivojlanish bosqichlarini sanang.
2. Polifoniya nima va u jahon musiqasida qanday ahamiyat kasb etadi?
3. I.S.Bax ijodining jahon musiqa san'atidagi o'rnini tushuntiring.
4. A.Vivaldining "Yil fasllari" turkumidan parchalar qanday obraz va manzaralarni ifodalaydi?
5. Vivaldi musiqasini tinglash orqali fasllar xarakterini qanday tasavvur qilish mumkinligini yozing.
6. Sharq allomalari orasida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino va Alisher Navoiyning musiqa haqidagi qarashlarini tushuntiring.
7. Sharq allomalarining musiqa haqidagi fikrlari bugungi musiqiy tafakkur uchun nima beradi?
8. Jahon musiqasi rivojida Vena klassik maktabi namoyondalari qanday o'rin tutadi?
9. I.Gaydn ijodining klassik simfoniya va kvartet rivojiga qo'shgan hissasini yozing.
10. V.A.Motsart musiqasining jozibasi va badiiy xususiyatlarini tahlil qiling.
11. L.Betxoven ijodida qahramonona ruh va insoniy kurash qanday aks etadi?
12. XIX–XX asr musiqa madaniyatida impressionizm nima ekanini tushuntiring.
13. F.Shubertning "Serenada" asari orqali romantik kayfiyat qanday yaratilishini izohlang.
14. Yevropa mumtoz musiqasi bilan sharq mumtoz musiqasining o'xshash va farqli tomonlarini yozing.
15. XX asr O'zbekiston musiqa madaniyatida Yunus Rajabiy nomi nima bilan bog'liq?
16. Yunus Rajabiy ijodi va Shashmaqomni yozib olishdagi xizmatlarini tushuntiring.
17. Xoji Abdulaziz Rasulovning ijrochilik faoliyati va milliy musiqadagi o'rni haqida yozing.
18. O'zbek musiqasida kompozitorlik ijodi tushunchasini izohlang.
19. V.A.Uspenskiyning o'zbek musiqashunosligidagi xizmatlarini tahlil qiling.
20. M.Tojiev ijodida o'zbek simfoniya sinfining yuksalishi nimada namoyon bo'ladi?
21. Matniyoz Yusupov ijodi va Yevropa hamda o'zbek simfoniya sinfini taqqoslashdagi ahamiyatini tushuntiring.
22. "Yakkadir Toshkent" qo'shig'ining badiiy-g'oyaviy mazmunini sharhlang.
23. "Keng Turkiston" va "Yurtga sadoqat" kabi qo'shiqlarda qanday vatanparvarlik g'oyalari ifodalanganini yozing.
24. III chorak mavzulari asosida jahon va o'zbek musiqa madaniyatining o'zaro aloqasi haqida xulosa chiqaring.
25. III chorak bo'yicha umumiy yakuniy xulosa yozing.

7-SINF MUSIQA FANIDAN III CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT II

1. Jahon musiqa madaniyatining shakllanishida qadimgi, oʻrta asr va yangi davr bosqichlarining oʻrnini tushuntiring.
2. Polifoniya va gomofoniya tushunchalarini taqqoslab yozing.
3. I.S.Bax ijodida polifonik fikrlashning qaysi jihatlari muhim ekanini tushuntiring.
4. A.Vivaldining "Yil fasllari" turkumidagi tabiat tasvirini musiqiy vositalar yordamida izohlang.
5. Vivaldi asarlarida ritm va harakat nega kuchli taassurot uygʻotadi?
6. Abu Nasr Forobiy musiqani ilmiy oʻrganishda qanday oʻrin tutishini yozing.
7. Ibn Sinoning musiqaga oid qarashlari inson ruhiyati bilan qanday bogʻlanganini tushuntiring.
8. Alisher Navoiy ijodida musiqa va sheʼriyatning oʻzaro yaqinligini izohlang.
9. Vena klassik maktabining jahon musiqasi tarixidagi burilish nuqtasi ekanini asoslang.
10. I.Gaydnning simfonik tafakkuri keyingi kompozitorlarga qanday taʼsir koʻrsatganini yozing.
11. V.A.Motsart ijodida noziklik va ravonlik qanday namoyon boʻlishini tahlil qiling.
12. L.Betxoven ijodini Motsart ijodi bilan taqqoslang.
13. XIX asr romantik musiqasi bilan XX asr impressionistik musiqasi oʻrtasidagi farqni tushuntiring.
14. F.Shubertning "Serenada" asarida lirizm qanday ifodalanganini yozing.
15. XX asr Oʻzbekiston musiqa madaniyatida Yunus Rajabiy va Xoji Abdulaziz Rasulovning xizmatlarini taqqoslang.
16. "Tohir va Zuhra" musiqali dramasidan duetlar milliy sahna musiqasi haqida qanday tasavvur beradi?
17. Oʻzbek kompozitorlik ijodida milliylik va zamonaviylik uygʻunligini izohlang.
18. V.A.Uspenskiyning ilmiy faoliyati oʻzbek musiqiy merosini saqlashga qanday xizmat qilgan?
19. M.Tojiev ijodida simfonik janrning yuksalishi haqida fikr bildiring.
20. Matniyoz Yusupov ijodi orqali Yevropa va oʻzbek simfonik tafakkuri qanday yaqinlashganini tushuntiring.
21. Jahon musiqa madaniyatini oʻrganish orqali milliy musiqaga boʻlgan munosabat qanday boyishini yozing.
22. "Bahor chorlovi" va "Yurtga sadoqat" qoʻshiqlarining tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiling.
23. III chorak mavzularida siz uchun eng murakkab va qiziqarli boʻlgan masalani izohlang.
24. Jahon, sharq va oʻzbek musiqa anʼanalarining tutash nuqtalari boʻyicha umumiy fikr yozing.
25. III chorak boʻyicha umumlashtiruvchi xulosa yozing.

7-SINF MUSIQA FANIDAN IV CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT I

1. O'zbek zamonaviy musiqa madaniyati tushunchasini izohlang va uning shakllanish omillarini yozing.
2. O'zbek simfonik musiqasi zamonaviy musiqiy tafakkurda qanday o'rin tutishini tushuntiring.
3. "Navro'z qo'shig'i" asari orqali yangilanish va bayram ruhi qanday ifodalanganini tahlil qiling.
4. Qashqarcha usuli deganda nimani tushunasiz va u ritmik jihatdan qanday tavsiflanadi?
5. Atoqli o'zbek san'atkorlari milliy musiqa rivojiga qanday hissa qo'shganini umumiy tarzda izohlang.
6. "Ey o'g'il" qo'shig'ining mazmuni va tarbiyaviy g'oyasini tahlil qiling.
7. "Ustozlarim" qo'shig'ida ustoz sha'ni qanday ulug'langanini tushuntiring.
8. "Dutorchi qizlar" ansambli nomi bilan bog'liq ijrochilik an'analarini yozing.
9. O'zbek musiqiy jamoalari nima uchun milliy madaniyat targ'ibotchisi hisoblanadi?
10. Teatr san'ati bilan musiqa o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring.
11. Konsert ijrochilik faoliyatida sahna madaniyati va ijro intizomi nega muhim ekanini yozing.
12. "Mavlon ota qo'shig'i" asarida qanday ruhiy-kechinmalar aks etishini tahlil qiling.
13. "Boysun" folklor ansambli faoliyati folklor merosini asrashda qanday ahamiyatga ega?
14. Televideniya musiqani ommalashtirishda qanday vosita bo'lib xizmat qilganini tushuntiring.
15. Kino musiqasi film mazmuni va obrazlariga qanday ta'sir ko'rsatishini yozing.
16. "Tulpor" asari va "Tangalik bolalar" filmi misolida ekran musiqasining vazifasini izohlang.
17. "Vatanginam" qo'shig'ining g'oyaviy mazmuni va vatanparvarlik ruhi haqida yozing.
18. Televideniya va kino musiqasi orqali yosh avlodga qanday estetik ta'sir ko'rsatish mumkin?
19. O'zbek zamonaviy musiqasida ansambl, yakkaxon va sahna jamoalarining o'zaro farqini tushuntiring.
20. Zamonaviy o'zbek musiqa madaniyatida milliylik va zamonaviylik qanday uyg'unlashganini tahlil qiling.
21. Atoqli san'atkor va musiqiy jamoalarning xalq didini shakllantirishdagi o'rnini yozing.
22. Teatr va kino musiqasi bilan folklor musiqasi o'rtasidagi farqli jihatlarni tushuntiring.
23. IV chorakda o'rganilgan qo'shiqlar orasidan birini tanlab, uning musiqiy va ma'naviy ta'siri haqida yozing.
24. IV chorak mavzulari asosida zamonaviy o'zbek musiqasining umumiy tavsifini bering.
25. IV chorak bo'yicha umumiy xulosa yozing.

7-SINF MUSIQA FANIDAN IV CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT II

1. O'zbek zamonaviy musiqa madaniyatining bugungi taraqqiyot bosqichi haqida fikr bildiring.
2. Zamonaviy simfonik asarlar o'zbek musiqa san'atiga qanday yangilik olib kirganini tushuntiring.
3. "Navro'z qo'shig'i" asarida milliy bayram timsoli qanday badiiy vositalar bilan ochilganini yozing.
4. Qashqarcha usulining ijro jarayonidagi o'rnini va ritmik xususiyatini tahlil qiling.
5. Atoqli o'zbek san'atkorlari nomlarini keltirib, ulardan birining ijodini tavsiflang.
6. "Ey o'g'il" qo'shig'ida yosh avlodga qanday nasihat va g'oyalar berilganini tushuntiring.
7. "Ustozlarim" qo'shig'i nega tarbiyaviy jihatdan muhim asar deb hisoblanishini yozing.
8. "Dutorchi qizlar" ansambli ijrochiligi milliy cholg'u an'anasini qanday davom ettirishini izohlang.
9. Musiqiy jamoa tushunchasi va uning sahnadagi birligi nimaga tayanganini tushuntiring.
10. Teatr san'atida musiqa dramatik voqelikni qanday boyitishini tahlil qiling.
11. Konsert ijrochilik faoliyatida tomoshabin bilan muloqot va sahna madaniyati nima uchun muhim?
12. "Mavlon ota qo'shig'i" mazmunida qanday ma'naviy qadriyatlar ifodalanganini yozing.
13. "Boysun" folklor ansambli faoliyatini folklor merosini saqlash va targ'ib etish nuqtai nazaridan baholang.
14. Televideniya orqali tarqalgan qo'shiqlarning ommabop bo'lish sabablari nimada?
15. Kino musiqasining sahna va konsert musiqasidan farqini tushuntiring.
16. "Tulpor" asari hamda film musiqasi orqali harakat va obraz yaratish qanday amalga oshirilishini yozing.
17. "Vatanginam" qo'shig'ida ona yurt timsoli qanday ifodalanganini tahlil qiling.
18. Televideniya va kino musiqasi tinglovchi hissiyotiga qanday tez ta'sir ko'rsatishini tushuntiring.
19. Zamonaviy o'zbek musiqasida folklor unsurlarining saqlanishi va yangicha talqin qilinishi haqida yozing.
20. Atoqli san'atkorlar va ansambllar yoshlar didini shakllantirishda qanday rol o'ynashini tahlil qiling.
21. Teatr, kino va konsert musiqasini bir-biriga bog'lovchi umumiy jihatlarni yozing.
22. IV chorak mavzularida o'rganilgan san'atkor yoki jamoalardan biri haqida batafsil fikr bildiring.
23. Zamonaviy musiqa madaniyatining ma'naviy hayotimizdagi o'rnini asoslab bering.
24. IV chorak mavzulari asosida milliy san'at va zamonaviy musiqiy tafakkur uyg'unligi haqida xulosa chiqaring.
25. IV chorak bo'yicha umumlashtiruvchi xulosa yozing.